

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ 428



**TANLOV (O'ZBEK HIKOYALARI POETIKASI)  
FANINING**

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 120000 - Gumanitar fanlar

Ta'limiy yo'nalishi: 5120100 - Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Ma'ruza - 14 soat;

Amaliy mashg'ulotlar - 20 soat;

Mustaqil ta'lim soati - 30 soat;

Umumiy o'quv soati - 64 soat.

**Samarqand - 2019**

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

Toshpo'latov A. SamDU "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD.

**Taqrizchilar:**

Qobilov U. "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Tobirov S. SamDU "Muntoz adabiyot tarixi" kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasining 2019 yil 3 iyul dagi 11-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tdi.

Kafedra mudiri [signature] Sh. Hasanov

Fanning ishchi o'quv dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil 4 iyul) bayonnomada tasdiqlandi.

Fakultet ilmiy kengashi raisi [signature] J. Eltazarov

Fakultet uslubiy kengashi raisi: [signature] M. Abdliyev

**Kelishildi:**

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i [signature] B. Aliqulov

## **KIRISH**

Davlat ta'lim standartiga ko'ra oliy ta'limning "Filologiya" ta'lim sohasida o'qitiladigan O'zbek hikoyalari poetikasi fani adabiy tur janrlarining kelib chiqishi, genezisi, badiiyati, ularning epik turning boshqa janrlaridan farqi, hozirgi o'zbek qissachiligining yutuq va muammolari, ijodkorlarning o'ziga xos uslubi kabi masalalardan tashkil topgan.

O'zbek hikoyalari poetikasifanining ahamiyati ijtimoiy hayot va adabiyotni tushunish, badiiy asarlar estetik darajasini aniqlash, qissalarda tasvirlangan adabiy qahramon va real hayot kishisi o'rtasidagi farqlarni ajratish kabilar bilan belgilanadi.

### **Fanning maqsad va vazifalari**

O'zbek hikoyalari poetikasi fani gumanitar fanlar majmuasiga taalluqli bo'lib, talabalar uni VII semestrda o'rganishadi. Fanning asosiy maqsadi talabalarni qissachilik tarixi, qissa janrining spesifik belgilari, hozirgi adabiy jarayon, badiiy asarning tarkibiy qismlari, ijodkor uslubi, badiiy obraz, adabiy qahramon ruhiyatining asardagi ifodasi kabi ma'lumotlar bilan tanishtirish, ularning qissachilik haqidagi bilimlarini oshirish, ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish sanaladi.

Fanning bosh vazifasi talabalarda adabiyotshunoslikning turli masalalarini tahlil etish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'zbek qissalari haqida keng qamrovli bilimga ega bo'lishlarini ta'minlash, "Adabiyotshunoslik metodologiyasi", "Badiiy tahlil asoslari", "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" kabi fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni beradi.

### **Fan bo'yicha talabani malakasiga qo'yiladigan talablar**

O'zbek hikoyalari poetikasi fanini o'rganish jarayonida bakalavr quyidagilarni bajara olishi lozim:

- o'zbek hikoyachiligining tarixi, rivoji va buguni haqidagi bilimlarini kengaytirishi;
- janrlar orasidagi tafovutni ilg'ash, badiiy matnni tahlil qilish, badiiy asarga estetik baho bera olishi;
- adabiy hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganishi, badiiy va estetik tasavurning uyg'unligini ta'minlashi;
- mustaqil va zamonaviy fikrlashi, kundalik faoliyatda badiiy-estetik madaniyatni yuksaltirishi;
- badiiy va ilmiy tafakkurning yuksak darajadagi ko'nikmalarini hosil qilishi;

- estetik did, badiiy soʻzni his etish koʻnikmalarini oʻzlashtirishi;
- badiiy asarni ijtimoiy-estetik hodisa sifatida tushuna olishi;
- ijodkor-yozuvchilar va alohida olingan badiiy asar poetikasi tushunchalarining farqlarini aniqlashi;
- badiiy asarni baholash va qadrlash malakasini egallashi.

**Oʻzbek hikoyalari poetikasi (“Tanlanma”) fanidan Maʼruza mashgʻulotlarning mavzular va soatlar boʻyicha taqsimlanishi:**

Mavzuning tartib raqami	Mavzuning nomi	Ajratilgan oʻquv soatlari
<b>Maʼruza mashgʻulotlari</b>		
1-mavzu	Oʻzbek adabiyotida hikoya janri tarixi	2 soat
2-mavzu	Hikoya janrinig adabiyotshunoslikda oʻrganilishi	2 soat
3-mavzu	XX asr jahon adabiyotida hikoyachilik. Hikoya va novella janri	2 soat
4-mavzu	A.Qahorning hikoyachilikdagi mahorati	2 soat
5-mavzu	Istiqlol davri oʻzbek hikoyachiligi	4 soat
6-mavzu	Adabiyotimizda modernistik va falsafiy hikoyalar	2 soat
<b>Jami:</b>		<b>14 soat</b>
<b>Amaliy mashgʻulotlar</b>		
1-mavzu	Yangi oʻzbek adabiyotida hikoya janri	2 soat
2-mavzu	Abdulla Qahhor mohir hikoyanavis	2 soat
3-mavzu	Shukur Xolmirzayev hikoyalari poetikasi	2 soat
4-mavzu	N.Eshonqul hikoyalarida oʻziga xoslik	2 soat
5-mavzu	Hikoyachilikda noanʼanaviylik (X.Doʻstmuhammad hikoyalari misolida)	2 soat
6-mavzu	Jahon adabiyotida hikoyachilik	2 soat
7-mavzu	S.Ahmadning mustaqillik davri hikoyalari tahlili	2 soat
8-mavzu	Salomat Vafo hikoyalari tahlili	2 soat
9-mavzu	U.Hamdani hikoyalari tahlili	2 soat
10-mavzu	N.Norqobilov hikoyalari poetikasi	2 soat
<b>Jami:</b>		<b>20soat</b>
<b>Umumiy jami:</b>		<b>34 soat</b>

## **Asosiy qism, fanning uslubiy jihatdan ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma'ruza) fanni mavzulari mantiqiy etma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislari orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinadi.

## **FANNING NAZARIY MASHG'ULOTLARI MAZMUNI (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)**

### **O'zbek adabiyotida hikoya janri tarixi (2 soat)**

Xalq og'zaki ijodida dastlabki hikoyalar. Yozma adabiyotda o'zbek nasrining shakllanishi. N. B. Rabg'uziy "Qisasi Rabg'uziy", A. Navoiy "Xamsa" dostonlari, Xoja "Miftoh ul-odil", "Gulzor" va boshqa asarlarda nasr tarixi masalasi ko'rib chiqiladi. XIX asrning 70 yillarida ririb kelgan realistik hikoyachilikka urg'u beriladi.

**Hikoya janrining adabiyotshunoslikda o'rganilishi haqida** ma'lumot beriladi. Bunda asosan Q. Yo'ldoshev, U. Normatov, A. Otaboy va boshqa adabiyotshunoslar adabiy-tanqidiy asarlariga murojat qilinadi. Tahlil va talqin orqali talaba ilmiylik salohiyatini rivojlantirib boradi.

### **XX asr jahon adabiyotida hikoyachilik. Hikoya va novella janri (2 soat)**

Novella janr sifatida Evropa adabiyotida yaratilgan bo'lsada, janr ildizlari Sharq adabiyotida ham yashab kelgan. Novella termini bilan atalmasa-da, Navoiy hikoyatlari bag'rida o'zining hozirjavobligi, kutilmagan qarorlar chiqarish bilan latifa janriga mos tushadigan latifaomuz asarlar uchrab turardi. Novella ildizlari shu va boshqa manbalarda o'rganiladi.

### **A.Qahhorning hikoyachilikdagi mahorati (2 soat)**

O'zbek realistik hikoyachilikda Abdulla Qahhorning o'rni. Abdulla Qahhor hikoyalarda syujet va kompozitsiya. Muallifning hikoyachilikdagi o'ziga xosligi. Abdulla Qahhor uslubi. O'zbek hikoyachiligi taraqqiyotiga adibning qo'shgan hissasi. Abdulla Qahhor mahoratini o'rgangan adabiyotshunos olimlar.

### **Istiqlol davri o'zbek hikoyachiligi (4 soat)**

Istiqlol davri adabiyotiga bir nazar. Mustaqillik bergan ne'mat. Ijod erkinligi. Sariq matbuotning ommaviylashishiga hikoyalarning qo'shgan hissasi. Hikoyachilikda shakliy o'zgarishlar. Noan'anaviy adabiyotning yuzaga kelishi. Modernistik hikoyalar haqida ma'lumot. Nazar Eshonqul va uning o'zbek hikoyachiligiga olib kirgan yangiliklari.

### **Adabiyotimizda modernistik va falsafiy hikoyalar(2 soat)**

Mustaqillik arafasida o'zbek adabiyotida bo'lgan shakliy o'zgarishlar. Modernistik oqimning o'zbek adabiyotiga kirib kelishi. Bu tjrabadagi dastlabki o'rinishlar. Nazar Eshonqulning "Maymun etaklagan odam" hikoyasi. An'anaviy

va noan'anaviy hikoyalar. X. Do'stmuhammad va uning falsafiy hikoyalari haqida ma'lumotlar beriladi.

## **AMALIY MASHG'ULOTLARDA TAVSIYA ETILADIGAN MAVZULAR**

**Yangi o'zbek adabiyotida hikoya janri** haqida ma'lumot beriladi. She'riy janrlar, ularning o'ziga xosliklari, janrlar orasidagi jiddiy va juz'iy farqlar, janrlarning yangilanishi va iste'moldan chiqib ketishi kabi masalalar o'rganiladi. Albatta, bularning hammasi mumtoz va hozirgi zamon she'riyati misolida tahlil va talqin qilinadi.

**Abdulla Qahhor mohir hikoyanovis** haqida ma'lumot beriladi. Odatdagidek she'riy janrlar ham doim o'zgarishda. Shunday ekan shoirlar shoirlar she'rlarida biror bir g'oyani ifodalash uchun o'ziga xos yo'l tanlashadi. Shunda xohlashsa xohlashmasa she'riy shakllarni o'zgartirishga o'zida moyillik sezadi. Mazkur mavzuda shu va boshqa masalalar yoritiladi. Poetik mahoratiga to'xtaladi.

**Shukur Xolmirzayev hikoyalari poetikasi** haqida ma'lumot beriladi. Janrning tarixiga qisqacha to'xtalinadi. O'zbek adabiyotida mazkur janr takammuliga hissa qo'shgan qo'shgan shoirlar tilga olinadi. Usmon Nosir, Cho'lpon, Barot Boyqobilov, Rauf Parfi, Faxriyor kabi ijodkorlar ijodiga nazar tashlanadi.

**N. Eshonqul, I. Sulton, S. O'nar, E. A'zam hikoyalari tahlili** orqali har bir adibning o'ziga xosliklarini tekshirish. Tabiatda har giyoh o'zga bir olam kashfiyot bo'lganidek, mazkur yozuvchilar ijodida ham shu kashfiyotlarni topa bilish. O'zbek adabiyoti va san'atiga qo'shgan hissasini tekshirish. Mustaqillik davri insonlari ruhiyatini qay darajada ochib berayotganligiga alohida e'tibor qaratish.

**Hikoyachilikda noan'anaviylik (X. Do'stmuhammad hikoyalari misolida)** Mustaqillik davri arafasida o'zbek adabiyotiga ham noan'anaviy hikoyalar kirib kela boshladi. Bular ko'proq G'arb adabiyoti ta'siri o'laroq, tarjima asarlar sababli yuzaga keldi. Talabalar xuddi shunday noan'anaviylikni X. Do'stmuhammad hikoyalari misolida tahlil qilishga harakat qiladi.

**Jahon adabiyotida hikoyachilik** haqida ma'lumot berish. O'zbek adabiyotiga kirib kelishi va o'z uslubiga ega bo'lishi haqida so'z yuritish. Tarjimachilik va o'zaro ta'sir doirasiga e'tibor qaratish. Yevropa, Osiyo, Amerika adabiyoti namoyondalari asarlaridan namunalar ko'rsatish. Jahon hikoyachiligida obrazlar tizimi o'rganiladi.

**S. Ahmadning mustaqillik davri hikoyalari** haqida ma'lumot beriladi. Asarlarining bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi. Yozuvchining xotira turkum

hikoyalari tahlilga tortiladi. Jumladan “Qora ko`z majnun” hikoyasi har tomonlama keng yoritiladi.

**S. Vaf**o hikoyalari tahlili haqida ma`lumot berish. Adabiyotga kirib kelishi haqida so`z yuritish. “Tilsim saltanati”, “Qora beva” kabi to`plamlaridan noan’anaviy hikoyalarini o`qish, yozuvchi mahoratini aniqlash. Adiba asarlarini davr ruhini ko`rsata bilish. Mavzularni g`oyaviy jihatdan tahlil etish.

**Ulug`bek Hamdam hikoyalari** haqida ma`lumot berish. Adabiyotga kirib kelishi va o`z uslubiga ega bo`lishi xususida so`zlash. “Uzoqdagi Dilnura” to`plamini tahlilga tortish. Tarjimon, adabiyotshunos, shoir, yozuvchi mahorati masalasiga alohida to`xtalish. “Tosh”, “Lola”, “Uzoqdagi Dilnura” hikoyalari badiiyatini tushuntirish.

**N. Norqobilov hikoyalari poetikasi haqida** tushuncha berish. Bunda asosan tabiat – hayvonlar, parrandalar, barcha nabotot va jamodod olami tasvri yetakchilik qilayotgan hikoyalarga e`tibor qaratish. “Ovul oralagan bo`ri”, “Bo`ron qo`pgan kun” kabi to`plamlari bilan ishlash.

### **Mustaqil ta`lim tashkil etishning shakli va mazmuni**

“**O`zbek hikoyalari poetikasi**” fani bo`yicha talabaning mustaqil ta`limi shu fanni o`rganish jarayonining tarkibiy qismi bo`lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to`la ta`minlangan. Talabalar auditoriya mashg`ulotlarida professor-o`qituvchilarning ma`ruzasini tinglaydilar, asarlarni tahlil etadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan adabiyotlarni, badiiy asarlarni o`rganadilar. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o`rganish maqsadida qo`shimcha adabiyotlarni o`qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo`yicha testlar yechadi.

Mustaqil ta`lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo`shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o`rganish, kerakli ma`lumotlarni izlash va ularni boppish yo`llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma`lumotlar to`plash va ilmiy izlanishlar olib boppish, ilmiy to`garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma`ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuning uchun ham mustaqil ta`limsiz o`quv faoliyati samarali bo`lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg`ulot olib boruvchi o`qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o`zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma`ruza darslarini olib boruvchi o`qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“O‘zbek hikoyalari poetikasi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi 20 ta katta mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan.

### Talabalar mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajar. Muddat	Hajmi (soat)
1.	A. Qahhor “Adabiyot muallimi”, “Dahshat” hikoyalari tahlili	Umuman adabiy tur va janrlar haqida ma’lumot beriladi	7-hafta	2
2	Sh. Xolmirzayev “Ozodlik”, “Bodom qishda gulladi” hikoyalari tahlili	Hikoyalarda yozuvchi uslubi masalasi yoritiladi	8-hafta	2
9	G`. G`ulom “Hasan kayfiy” hikoyasi tahlili	Yozuvchi hikoyalaridan misollar keltirish hikoyalari tahlil	9-hafta	2
10	A. Qodiriy “Uloqda” hikoyasi tahlili	Yozuvchi hikoyalaridan misollar keltirish	10-hafta	2
11	S. Ahmad “Qorako`z Majnun” hikoyasi tahlili	Yozuvchi hikoyalaridan misollar keltirish hikoyalari tahlil qilish	11-hafta	2
12	A. Muxtor “Qora domla”, “Ko`k tosh” hikoyalari tahlili	Asarni o`rganish. Obrazlar tizimiga to`xtalish. Badiiy mahoratini ochish	12-hafta	2
13	P. Qodirov “Jon shirin” hikoyasi tahlili	Yozuvchi hikoyalaridan misollar keltirish hikoyalari tahlil qilish	13-hafta	2
14	O. Yoqubov “Saqol” hikoyasi tahlili	Yozuvchi hikoyalaridan misollar keltirish hikoyalari tahlil qilish	13-hafta	2
15	O`.Hoshimov “Mahallaning onasi” hikoyasi tahlili	Yozuvchi hikoyalaridan misollar keltirish hikoyalari tahlil qilish	14-hafta	2
<b>Hammasi</b>				30

### Dasturning informatsion uslubiy ta’minoti

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan:



- ma'ruza mashg'ulotlarining mavzulari zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi;
- amaliy mashg'ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash, "ish o'yini" va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;
- seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **“O'zbek hikoyalari poetikasi” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari**

“O'zbek hikoyalari poetikasi” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

**joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

**yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o'tkaziladi.

**ON** o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni

muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

“O'zbek hikoyalari poetikasi” fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>Talabalarning bilim darajasi</b>
90-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
80-89	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
60-80	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-69	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

Fan bo'yicha saralash bali 60 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

**ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

**JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 60 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 60 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>ON ballari</b>
		<b>Maksimal ball</b>
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi.	
2	Talabalarining mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	
<b>Jami ON ballari</b>		

#### **Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>JN ballari</b>		
		<b>maks</b>	<b>1-JN</b>	<b>2-JN</b>
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati			

2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.			
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha			
<b>Jami ON ballari</b>				

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

### **Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari**

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal \_\_ ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

## **TAVSIY ETILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **1. Asosiy adabiyotlar**

1. Адабий турлар ва жанрлар. Биринчи жилд. –Т: "Фан", 1991. 384 б.
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 1-том, -Т.: "Фан", 1978. 232 б.
3. Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2-том, -Т.: "Фан", 1979. б-448.
4. Аҳмедова. Ш. Адабиёт танқидчилиги жанрлари. -Т.: "Фан", 2006.
- 5 Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. -Т.: "Ўзбекистон", 2002. 558 б.

### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR**

8. Аристотел. Поэтика. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
9. Бурлыгина Е.Я. Культура и жанр: методологические проблемы жанрообразования и жанрового синтеза. Саратов: Изд-во Саратов. унта, 1987.
10. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. -Т.: "Ўзбекистон", 1993.192
11. Дўстмуҳаммад Х. Ижод – кўнгил мунавварлиги. –Т.: "Mumtoz so'z" 2011.
12. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. -Т.: "Маънавият", 2010. 390 б.

13. Жўраев Т. Онг оқими, модерн. -Ф.: “Фарғона” нашриёти, 2010. б-204.
14. Иброҳимов М. Ўзбек балладаси. -Т.: “Фан”, 1974. б-312.
15. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2006. 546 б.
16. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. –Тошкент: “SHARQ”, 2011. 319 б.
17. Каримов Ҳ. Истиклол даври адабиёти. –Т.: “Янги нашр”, 2010. 263 б.
18. Мустақиллик даври адабиёти. -Т.: “Адабиёт ва санъат нашриёти”, 287 б.
19. Мирвалиев С. Р. Шокирова. Ўзбек адиблари. -Т.: “Фан”, 2007. 270 б.
20. Мухтаров Т. А. Новелла в классической арабской литературе. –Ташкент: “Ўзбекистон”, 2002. стр. 190.
21. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. -Т.: “Маънавият”, 2000. 110 б.
22. Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. -Т.: “Университет”, 2007. 171 б.
23. Норматова Ш. Жаҳон адабиёти. –Тошкент: “Чўлпон номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи”, 2008. 95 б.
24. Норматов У. Ижод сеҳри. -Т.: Шарқ, 2007. 352 б.
25. Раҳимжонов Н. Илмий тафаккур жилолари. -Т.: “Фан”, 1991. 64 б.
26. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. -Т.: “Шарқ”, 2007. 335 б.
27. Султон И. Адабиёт назарияси. –Тошкент: “Ўқитувчи”, 1980. 392 б.
28. Сойимов Б. Улуғ ватан уруши даври ўзбек адабиётининг жанр хусусиятлари. –Т.: “Фан”, 1984. 256 б.
29. Сўз масъулияти. Адабий танқидий мақолалар. -Т.: “Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1986. 286 б.
30. Содик С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. -Т.: “Шарқ”, 2005. 319 б.
31. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. -Т.: 2004. б-128.
32. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. Перевод с английского. – Москва: Прогресс, 1978. – С. 326.

#### **Internet saytlari**

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.adabiyot.uz/>